



ITALYAN TILIDA PREDLOGLAR

Xodjiyeva Gulchehra Norovna

SAMDCHTI ispan –italyan tillari kafedrası o‘qituvchisi

Mirzayeva Ruxshona Raximqul qizi

SAMDCHTI italyan tili 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola italyan tilidagi predloglarning grammatik va semantik xususiyatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda sodda va murakkab predloglarning qo‘llanishi, ularning gapdagi vazifasi hamda ot, fe‘l va artikllar bilan munosabati ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, italyan tilidagi predloglarning o‘zbek tilidagi ekvivalentlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Misollar asosida predloglarning nutqdagi ahamiyati, kommunikativ vazifasi va chet tilini o‘rganishda uchraydigan qiyinchiliklar yoritib beriladi. Tadqiqot natijalari italyan tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirish hamda talabalar nutq kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: preposizioni semplice, italyan tili, predloglar, grammatika.

Italyan tilida predloglar (preposizioni) juda muhim grammatik qism hisoblanadi. Predloglar o‘zbek tilidagi kelishiklarga qisman qiyoslash mumkin. Predloglar kelishiklarni o‘rnini to‘ldirib, hatto, ulardan ham ko‘p ma’nolarni ifodalaydi. Ular gapdagi so‘zlar orasidagi bog‘lanishni ko‘rsatadi va joy, vaqt, yo‘nalish yoki sababni ifodallashga yordam beradi. Italyan tilidagi eng asosiy predloglar: di, a, da, in, con, su, per, tra/fra hisoblanadi.

Oddiy predloglarning qo‘llanilishi:

«DI»

Italyan tilidagi «DI» predlogi ko‘pincha egalik va tegishlilik ma’nosini bildiradi. O‘zbek tilida bu vazifani asosan qaratqich kelishigi, ya’ni “-ning” qo‘shimchasi bajaradi. Demak, italyan tilida alohida predlog ishlatilsa, o‘zbek tilida grammatik kelishik orqali shu ma’no ifodalanadi.

Misol uchun:

Avvalo ushbu predlog insonning qayerlik ekanligini, kelib chiqishi haqida aytilganda: Io sono di Samarcanda.

Kimning nimaga egaligi haqida aniq ma’lumot berilganda: La macchina di Paola.

Biror narsani qanaqa materialdan tayyorlanganligi, mazmuni va o‘lchamlarini belgilash uchun:[3] (material uchun IN predlogini ham ishlatish mumkin) Il mio orologio di plastica e funzione benissimo!



O'zbek tilidagi chiqish kelishigi -dan o'rnida: Un bicchiere d'aqua.
Harakatning tugashini bildiruvchi fe'llardan keyin: Finisco di scrivere questa mail e arrivo.

Narsa turini bildiradi: Un film di fantascienza, di alieni, credo.

Biror sevimli mavzu haqida : Luigi parla sempre di politica.

«A»

Ko'pincha «A» predlogi jo'nalish kelishigiga mos keladi, ammo o'rin-payt yoki vaqt ma'nosida ham ishlatiladi. O'zbek tilida bu vazifalar “-ga” va “-da” qo'shimchalari orqali alohida ifodalanadi.

Birinchi navbatda shaharlar va orollar haqida gapirilganda va yo'nalish ko'rsatilganda ishlatiladi: Luisa vive a Lecce. (città)

Vado a Cipro

la settimana prossima. (isola)

Vaqt va oylar haqida gapirilganda qo'llaniladi: A maggio torna mio fratello.

La lezione inizia a mezzanotte.
Vado al cinema alle 8.00.

Infinitiv fe'llardan oldin qo'llaniladi: Esco a fare una passeggiata.

Biror bir harakat yoki holatning boshlanishidan oldin ishlatiladi: Adesso mi metto a pulire il giardino.

Shuningdek harakatning oxirgi oluvchisi bo'lgan shaxsni bildirganda ham qo'llaniladi: Sai, ho scritto mail a mio fratello.

«DA»

Italyan tilidagi «DA» predlogi kelib chiqish, boshlanish nuqtasi yoki uzoqlashish ma'nolarini anglatadi. O'zbek tilida bu ma'no chiqish kelishigi “-dan” orqali ifodalanadi.

Qayerdan kelganini ko'rsatish uchun ishlatiladi va shu “venire, partire, arrivare” fe'llar bilan qo'llaniladi: I nostri amici arrivano oggi da Buenos Aires.

Shaxsning uyi yoki ish joyini ko'rsatish uchun ishlatiladi: Vado da mia nonna.

Bir davrning boshlanishini ko'rsatish uchun ham ishlatiladi: Lavoro da lunedì.

Biror narsaning nima uchun ishlatilishini ko'rsatish uchun foydalaniladi: Dove sono i miei occhiali da sole?

Ba'zi infinitive fe'llar bilan ham qo'llanilib keladi: Vorrei qualcosa da mangiare.

Harakatning sababini keltirganda: Arrossi da vergogna.

O'tmish yoki kelajak hayotdagi ma'lum bir vaqtini ko'rsatishda: Da bambino...



«IN»

«IN» predlogi joy, holat va ichki makonni ifodalash uchun ishlatiladi. O'zbek tilida esa bunday ma'nolar "-da", "ichida" yoki boshqa qo'shimchalar orqali beriladi.

Qit'alar, millatlar, ba'zi orollar (Giamaica, Corsica....) va yo'llarning nomlari oldidan ishlatiladi: Vivo in Europa, per la precisione in Francia, in Provenza.

Vaqtini belgilashda ishlatiladi: Preferisco le vacanze in estate.

Gabriella si sposa in maggio.

Vaqt oralig'i chegarasini belgilash uchun ham ishlatiladi: Puoi finire questo lavoro in due ore?

Barcha transport vositalarini ko'rsatish uchun ishlatiladi: Vado a Roma in treno.

(*) faqatgina piyoda (a piedi) va otda(a cavallo) tarzda bo'ladi.[3]

Hamda iboralar bilan ham ishlatiladi: in genere, in tempo, in giro, in fretta, in poche parole ...

-Ia bilan tugagan in farmacia, in panetteria, in trattoria, in pizzeria kabi otlar in predlog bilan keladi.

«CON»

«CON» predlogi birgalik va hamrohlik ma'nosini bildiradi. O'zbek tilida bu vazifani "bilan" yordamchi so'zi bajaradi. Har ikki tilda ham ushbu birlik insonlar yoki predmetlar o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi.

Ish-harakat kim yoki nima bilan bajarilayotgani haqida gapirilganda: Vado al cinema con Renata.

Harakat yoki holatni qay usulda bajarilganligini ifodalash uchun: Ragazzi ascoltano la lezione con attenzione.

Sifat yoki xususiyatni ifodalashda: Quella ragazza con gli occhi azzurri.

Muayyan transport vositalarini ko'rsatishda: Vado a Roma con il treno delle 7.00.

«SU»

«SU» predlogi joylashuv ma'nosidan tashqari mavzu yoki bog'liqlik ma'nosini ham anglatadi. O'zbek tilida esa bu ma'nolar "ustida", "haqida" kabi turli vositalar orqali ifodalanadi. Italian tilida esa bitta predlog bir nechta semantik vazifani bajaradi.

Mavzu nima haqidaligini aytganda: Ho scritto un articolo su Roma.

Yuzada turgan narsalar haqida gapirilganda: Il tuo libro è su questo banco.

Iboralar bilan ham ishlatiladi: su suggerimento, su consiglio, su proposta ...

«PER»



Italyan tilidagi «PER» predlogi sabab, maqsad yoki manfaat ma'nolarini bildiradi. O'zbek tilida esa bu ma'no asosan "uchun" ko'makchisi orqali ifodalanadi. Ushbu birlik harakatning nima sababdan yoki kim uchun amalga oshirilayotganini ko'rsatadi.

Maqsadni ifodalashda: Studiamo molto per il compito di domani.

Jo'nab ketilgan joyga nisbatan: Parto per Roma.

Ish harakatning kim uchun bajarilayotganiga nisbatan: Compriamo un regalo per il nostro professore.

O'tmishdagi yoki kelajakdagi vaqt oralig'ini ko'rsatish uchun : Il presidente ha parlato per tre ore.

«TRA/FRA »

«TRA/FRA» predloglari oraliq, vaqt yoki joy munosabatlarini bildiradi. O'zbek tilida bu ma'nolar "orasida", "ichida" kabi yordamchi so'zlar bilan ifodalanadi. Har ikki tilda ham ushbu vositalar predmetlar yoki vaqt oralig'i o'rtasidagi munosabatni ko'rsatishda muhim ahamiyatga ega.

Kelajakdagi ma'lum bir vaqt oralig'ini ifodalab keladi: Ehi, fra cinque minuti inizia il film!

Bir predmetning ikki yoki undan ko'p predmetlar orasidaligini aytishda qo'llaniladi: Fra tutti questi cappotti, dov'è il mio?

(*)Tra va Fra sinonim lekin ulardan biri eyfoniya ya'ni chiroyli tovush asosida tanlanadi. Misol uchun: "tra tre ore" dan ko'ra "fra tre ore" chiroyli talaffuz qilinadi; yoki "fra Francia e Belgio" o'rniga " tra Francia e Belgio"deyish yaxshiroq.[1]

Shuningdek oddiy predloglarni yasashda ham istisnalar mavjud .

IN predlogini talab qiladigan otlarning aksariyati ayol jinsiga mansub, A esa erkak jinsiga mansub otlardir. In casa , in banca , in piazza;al ristorante , al cinema, al bar.[1]

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, italyan tilidagi oddiy predloglar gap mazmunini to'g'ri va aniq ifodalashda muhim o'rin tutadi. Ular so'zlar o'rtasidagi bog'lanishni yaratib, joy, vaqt, yo'nalish va boshqa munosabatlarni ifodalashga yordam beradi. Oddiy predloglar italyan tilining asosiy grammatik unsurlaridan biri bo'lib, kundalik nutqda juda ko'p qo'llaniladi. Ularni to'g'ri ishlata olish nafaqat grammatik jihatdan savodli gap tuzishga, balki fikrni ravon va tabiiy yetkazishga ham xizmat qiladi. Shu sababli oddiy predloglarni chuqur o'rganish va amaliyotda muntazam qo'llash italyan tilini mukammal egallash yo'lidagi muhim qadamlardan biridir.



1. Alessandra Latino, Maria Muscolino. “Una grammatica italiana per tutti” Roma: edizioni Edilingua, 2020. B.47
2. E. Jafrancesco, F. Fiesoli. “Parla e scrivi”, Firenze: Francesco. B.19
3. Patrizia Guida, Maria Martini. “Esercitarsi con la grammatica 1”. Perugia: Guerra guru, 2006. B. 202
4. Ходжиева, Г. (2026) «Анализ и сравнение языковых особенностей гендерной коммуникации на примере итальянской и узбекской литературы», Зарубежная лингвистика и лингводидактика, 4(1), сс. 94–97. doi: 10.47689/2181-3701-vol4-iss1-pp94-97.
6. Ходжиева, Г. 2024. Анализ и сравнения языковых особенностей гендерной коммуникации на примере итальянской и узбекской литературы. Зарубежная лингвистика и лингводидактика. 2,4/S (окт. 2024), 232–235. DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss4/S-pp232-235>.